




AKADEMIYA
GOOGLE

RAQAMLI OB'KT
IDENTIFIKATORI



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI,
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI BINOSI
"SOTSIOLOGIYA" KAFEDRASI



ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI



<https://zenodo.org/record/7978770>

Chop
etilgan sana:
2023-yil 20-may

KONFERENSIYA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA FAOLiyAT YURITADI:

1. ZAMONAVIY IJTIMOIY VOQE'LIKNING O'ZIGA XOSLIGI VA ZAMONAVIY JAMIYAT DINAMIKASINI ANIQLASH
2. MINTAQAHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI
3. MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR
4. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA | ONLINE ZOOM PLATFORMA MATERIALLAR TO'PLAMI

TOSHKENT
2023-YIL 25-MAY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH TADQIQOTCHILAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



[HTTPS://NUU.UZ](https://nuu.uz)

OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
SOTSILOGIYA KAFEDRASI
"IJTIMOIY FIKR" RESPUBLIKA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MARKAZI

ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi
(Toshkent, 25-may 2023-yil)
MATERIALLAR TO'PLAMI



1-BO'LIM

TOSHKENT-2023

KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

Konferentsiya koordinatori:

Sabirova Umida Farxadovna
sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAXRIRY KENGASHI

Xaydarov Abror Xaydarovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

Xaydarova Xilola Xislatnovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Muzaffarov Sanatbek Ikromjon o'g'li

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Abdusalomov Abdurashid Dilshod o'g'li

O'zMU talabasi (Toshkent, O'zbekiston)

DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 310 b.

MAQOLADA KELITIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ



10. Sherbutaevna J. G. Rational-instrumental theory of electoral behavior //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 689-693.
11. Нематова Д.Т. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш жараёнларининг социологик таҳлили // E Conference Zone. – 2022. – С. 83-86.
12. Сабирова У.Ф. Социология как путь повышения интеллектуального потенциала общества Узбекистана // Журнал социальных исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
13. Хусанова Х.Т. Аҳолини ижтимоий ҳимоялаш – инсон капиталини ривожлантириш омили сифатида // Academic research in educational sciences. 2022. №NUU Conference 2.
14. Аббор Х. Х. Глобаллашув ва янги мустақил давлатларнинг барқарор ривожланиши: назарий социологик таҳлил //Журнал социальных исследований. – 2022. – №. SI-1.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975610>

“JAMIYAT IJTIMOYIY SOHASI” TUSHUNCHASIGA DOIR

Kholbekov Abdug‘ani
Sotsiologiya fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Milliy universiteti Sotsiologiya kafedrasida
e-mail: kholbekovabdugani@gmail.com

Nazarkasimov Sarvar
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti
e-mail: nazarkasimovsarvar@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy fanlarda postsovet makonida “jamiyat ijtimoiy sohasi” tushunchasining transformatsiyasi jarayonlari tadqiq etilgan. Shuningdek, jamiyat ijtimoiy sohasining universal xususiyati, uning jamiyatning keng qamrovli hayotiga oid hodisa ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, sotsial fanlar, sotsial jarayonlar, paradigmalar, transformatsiya, ijtimoiy soha, ijtimoiy siyosat, biznes strukturalari, grajdanlik jamiyati.

ON THE CONCEPT OF «SOCIAL SPHERE OF SOCIETY»

Kholbekov Abdugani
Doctor of Sociological Sciences, Professor
National University of Uzbekistan Department of Sociology
e-mail: kholbekovabdugani@gmail.com

Nazarkasimov Sarvar
PhD in Sociological Sciences, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical University
e-mail: nazarkasimovsarvar@gmail.com

Abstract: The article examines the transformation processes of the concept of "social society" in post-Soviet space in social sciences. In addition, the universal nature of the social society concept and its relevance to the broad-based life of society have been highlighted.

Keywords: society, social sciences, social processes, paradigms, transformation, social sphere, social policy, business structures, civil society.

Jamiyat va uning ijtimoiy sohasi haqidagi fikrlar ko‘plab nazariyotchi sotsiologlar tomonidan rivojlantirilgan. Bunda qarashlar odatda “klassik sotsiologik nazariyalar – modernistik sotsiologik nazariyalar – postmodernistik sotsiologik nazariyalar” ko‘rinishida bo‘lib, ular davriy rivojlanish natijasida o‘z mohiyatini o‘zgartirib borgan [4].

Umuman olganda, jamiyatning dinamik rivojlanib borishi holatini o‘zida aks ettiruvchi nazariyalarni besh avlodga ajratish mumkin bo‘lib, bu nazariyalarga besh turdagi sotsiologik paradigmalarda mos keladi: 1) evolyutsion – chiziqli nazariya va unga mos keluvchi pozitivistik paradigma; 2) sotsial hodisalarning ehtimoliyligiga asoslangan nazariya va unga mos keluvchi interpretativ paradigma; 3) jamiyat rivojlanishini noaniq fluktasiyalar (P. Sorokin), kuchaygan differentsiatsiya (T. Parsons) va sotsial ambivalentlik kabi jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan nazariyalar va ularga muvofiq keluvchi – integral paradigma; 4) o‘zida individual refleksivlik va institutsionallik kabi jihatlarni mujassamlashtirgan zamonaviy jamiyatni tahlil etuvchi nazariya va unga muvofiq keluvchi refleksiv paradigma [3; 110-128].

Hozirgi kunda jamiyatning strukturasi va uning taraqqiyoti masalasini yoritishga qaratilgan nazariyalarning beshinchi avlodi shakllangan bo‘lib, ularning quyidagi klassifikatsiyasini keltirish mumkin: a) konfliktologik yondashuv; b) sotsial differentsiatsiya yondashuvi; tarmoq nazariyasi (R. Bert); c) jamiyatning atomistik nazariyasi; d) simvolik interaksionizm; e) dialektik paradigma; f) individualizm va xolizm.

XXI asrning boshlarida ko‘plab sotsiologik nazariyalar globallashtirish ta‘sirida yangi mazmunga ega bo‘la boshladi. Shiddat bilan rivojlanayotgan jarayonlar jamiyat haqidagi klassik hisoblangan nazariyalarga ham muhim o‘zgartirishlar va to‘ldirishlar kiritishni zaruriyatga aylantirdi. Umuman olganda, globallashtirish va informatsion texnologiyalar inqilobi kabi universal jarayonlarni tahlil qilish va ularning ta‘sir doirasini anglab yetish jamiyat haqidagi sotsiologik nazariyalarning metodologik asoslarini takror ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Zamonaviy sotsiologiyada bu klassik sotsiologik nazariyalarni qaytadan ko‘rib chiqish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, zamonaviy sotsiologik nazariyalar doirasida metodologik tadqiqotlar fundamental xarakterga ega bo‘lib, umumiy bir jihat, ya‘ni muammoli vaziyatni anglash va kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqea va hodisalarni tashhishtash bilan belgilanadi. Aynan mana shu jihat universallik tamoyili deb ataladi. Universalizm o‘z vaqtida sotsiologik tadqiqotlar asosi sifatida butun klassik va postklassik bosqichlar uchun xos edi. Klassik va postklassik sotsiologiya uchun asosiy tahlil obyekti rivojlanishning u yoki bu bosqichida turgan alohida va cheklangan jamiyat hisoblanar edi. Keng miqyosli jarayonlarni boshdan kechirayotgan jamiyatdagi barcha jarayonlar bir xil fundamental xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim edi. Bunda sotsial-tarixiy jarayonlarni universal tushunish andozasi sifatida G‘arb jamiyati va “Shimoliy Atlantika makoni”da yuz beradigan o‘zgarishlar olinar edi. Qisqacha qilib aytganda, universalizm asosan G‘arb jamiyatlari va davlatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonining kontseptualizatsiyasiga asoslanar edi (sotsial evolyutsionizm va keyinchalik sotsial modernizm nazariyasi g‘oyalari).

XXI asr boshiga kelib vaziyat tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda sotsiologiyadagi ilmiy tasavvurlar va tadqiqotlar globallashtirish g‘oyasi bilan bog‘liqdir. “Global sotsiologiya – deb yozadi Ternborn, – universalizmdan shu asosga ko‘ra farqlanadiki, u barcha uchun umumiy deb hisoblanadigan ehtimoli g‘oyaga emas, balki global variativlik, aloqadorlik va interkommunikatsiyaga asoslanadi” [5;50]. Darhaqiqat, global sotsiologiyada dunyo insoniyatning shunchaki evolyutsiyasi va modernizatsiyasi emas, balki o‘zaro aloqadorlikka ega turli xil sotsial va madaniy tizimlarning strukturaviy majmuasi sifatida tushuniladi.

Global sotsiologiya shu ma‘noda jamiyatning milliyligi va “Shimoliy Atlantika makoni” bilangina cheklanmay, ulkan global sotsial makon tendentsiyasiga e‘tiborni qaratadi. Aytish mumkinki, zamonaviy sotsiologiyada universalizm prinsipidan globalizm prinsipi tomon metodologik siljish yuz bermoqda.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, XXI asr sotsiologiya fani diqqat markazida bo‘lib kelayotgan jamiyat, uning strukturasi, uning sohalarini rivojlanishi mexanizmlarini o‘rganish yangi konseptsiyalar, yondashuvlar va nazariyalar asosida istiqbolga erishadi. Bugungi dunyoning o‘zgaruvchanligi unda kechayotgan sotsial munosabat va jarayonlarning globalizatsiya hodisasi



bosimi ostida o'zgarishi, jamiyatlarning o'z lokalligini yo'qotayotganligi va eng asosiysi – biz yashayotgan jamiyatning transformatsiyalashuvi bilan bog'liqdir.

Shu ma'noda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va sotsial sohasiga oid tadqiqotlar o'z mohiyatiga ko'ra bevosita jamiyatni tadqiq etish bilan bog'liqdir. Aytish mumkinki, ular orasida ijtimoiy soha sotsiumning yadrosi va o'zagi hisoblanadi. Aynan mana shu yadro jamiyatning mavjudligi, yashash davomiyligi, o'zgaruvchanligi va taraqqiyotini belgilab beradi.

Birinchiidan, "ijtimoiy soha"ni kategoriya sifatida kiritish jamiyatni bir butunlik sifatida olib qarash nuqtai nazarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ijtimoiy soha o'zaro ta'sirlanayotgan turli sohalarning funksiyalari uchun o'zaro to'ldiruvchilik funksiyasini ham bajarishi muhimdir. Masalan, jamiyatning iqtisodiy sohasi aholining moddiy boyliklarni yaratish, taqsimlash va iste'mol qilish kabi ijtimoiy zaruriyatidan kelib chiqadi va mana shu maqsadlarga mos bo'lgan ijtimoiy infrastrukturani shakllantiradi. Ijtimoiy soha o'zining xususiy infrastrukturasi (uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim muassasalari va b.) asoslangan holda mehnat resurslarini takror ishlab chiqaradi, u yoki bu sotsial subyektlarning iste'molchilik faoliyatini tartibga soladi, ularning ijodiy potensialini amalga oshirishlari, shaxs sifatida namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Analogik tarzda ijtimoiy sohani jamiyatning boshqa sohalari, jumladan, siyosiy, ma'naviy-madaniy sohalar bilan funktsional o'zaro aloqadorligida ham ko'rish mumkin.

Ikkinchiidan, ijtimoiy sohani jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birgalikda olib qarash evristik samaradorlikka ega bo'lib, bunday yondashuv asosida jamiyatni tushunish inson, oila, guruhlar va aholining turli qatlamlari tomonidan takror ishlab chiqarish jarayonini va uning natijalarini bir butun holda baholashga, turli sotsial institutlar faoliyatining samaradorligini tahlil qilishga yordam beradi. Nihoyat, ijtimoiy sohani faqat konkret o'rganish kontekstida emas, balki boshqa sohalar bilan o'zaro aloqadorligida ham tahlil etish zarur. Ijtimoiy sohani keng ijtimoiy mazmunda tadqiq etish jamiyat hayotining ijtimoiy sohasini o'rganish jarayonini detallashtirishga, ijtimoiy sohaning har bir elementining ahamiyatini anglashga, kishilarning ijtimoiy hayotining ichki mexanizmlarini ochishga yordam beradi.

Uchinchiidan, adabiyotlarda "ijtimoiy soha"ning sinonimlari sifatida "jamiyatning ijtimoiy hayoti", "sotsial fazo", "sotsial maydon" kabi tushunchalar qo'llaniladi. Boshqa kategoriyalar singari "ijtimoiy soha" ham ko'p ma'noli jihatga egadir. Biroq, bu tushunchaning mohiyatini tashkil etuvchi barqaror yadro mavjud bo'lib, bu uning kategorial mazmunini ifodalaydi. Shu sababli ijtimoiy sohaning strukturasi, mazmun va mohiyatini ifodalashda to'plangan empirik va nazariy sotsiologik materiallarni hisobga olish qat'iy zaruriyat hisoblanadi.

To'rtinchiidan, ishlab chiqarish jamiyat hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi va ijtimoiy soha tuzilmalari, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy norma va qadriyatlarining konkret ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida uzluksiz amal qilishida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'rif balki ijtimoiy sohani ijtimoiy jabhalar majmui sifatidagina emas, ijtimoiy makon doirasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va aloqalar tizimi sifatida ko'rishga ham imkon beradi. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda iqtisod va ijtimoiy soha rivojining o'zaro aloqadorligiga birmuncha e'tibor qaratiladiki, bu insonlarning ikki xil xarakterdagi – bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy munosabatlar, ham ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatidagi xususiyati bilan asoslanadi. Zero, iqtisod va ijtimoiy sohaning ichki birligini aniqlash mazkur sohalardagi muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday yondashuv zamonaviy ijtimoiy soha rivojining bir tomondan sharti hisoblansa, boshqa tomondan iqtisodiy taraqqiyot natijasi va iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatning optimal mutanosibligiga erishish zaruratini nazarda tutadi.

Beshinchiidan, hozirda insonga munosib hayot tarzini ta'minlaydigan sharoitlar yaratishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Aynan shu sababli inson kapitali sifatiga ta'siri va iqtisodiy jarayonlarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy soha roli va ahamiyatiga e'tibor ortmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson kapitalini qayta ishlab chiqish – iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar birligi, iqtisod va ijtimoiy soha taraqqiyoti natijasi bo'lib qolmoqda. Biroq, bugungi kunda ijtimoiy sohadagi ba'zi institutsional cheklovlar ham kuzatilmoqda. Bunday holat an'anaviy tafakkur tarzi, amalga oshirilayotgan maqsadlar, huquqlar va kafolatlar o'rtasidagi nomutanosiblik, rasmiy va norasmiy norma va qoidalarning o'zaro qarama-qarshiligi sababli yuzga kelmoqda. Aynan shu



muammoli masalalarni hal etish maqsadida bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, ham iqtisodiy muvozanatga erishish, jamiyatda uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Oltinchidan, bugungi kunda aholi turmush sifatini oshirishning integratsiyalashgan innovatsion modelini ishlab chiqish, uning ijtimoiy soha va sifatli hayotning tarkibiy qismini tashkil qiladigan funktsional komplekslar, ularning o'zaro aloqadorligini shakllantirishga asoslanadigan mexanizmini yaratish, bunda alohida funktsional komplekslar elementlari harakatini va diqqatini ijtimoiy tuzilmalar rivojiga qaratish ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Yettinchidan, ijtimoiy soha davlatning ijtimoiy siyosati asosida rivojlanib boradi. Shuning uchun ham ijtimoiy siyosat mohiyatan subsidar mas'uliyat tamoyilining amalga oshirilishi, ya'ni ijtimoiy davlatning siyosiy imkoniyatlari individning o'zi va oilasi oldidagi mas'uliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy davlat moddiy boyliklarning teng taqsimlanishiga erishishda muhim subyekt bo'lib qolaveradi. Bunday yondashuv davlat resurslari hisobiga aholining turmushini yaxshilash darajasini qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Biroq, biz yolg'iz bunday yondashuvlarning hech biri mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini mustahkamlash va samarali islohotlarni amalga oshirishga imkon beradi deb hisoblamaymiz. Avvalo, barqaror iqtisodiy taraqqiyot ommaviy o'rta sinfning samarali faoliyati asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, hozirgi murakkab jahon iqtisodiy munosabatlari sharoitida aholining daromadini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, mustaqil tadbirkorlik va fuqarolarning mehnat faoliyatini yaxshilash va faolligini oshirish, oylik maoshni qayta taqsimlash va uni nazorat qilib borish, ijtimoiy yordam, nafaqa ta'minoti, sog'liqni saqlash, ta'lim sohalari isloh qilish muammoli masalalardan bo'lib qolaveradi.

Sakkizinchidan, ijtimoiy sohada davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishda mas'uliyat taqsimlanishi mexanizmi orqali institutsional o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini ochib berish mazkur sohadagi aksariyat muammoli masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sohaning predmeti bir tomondan uning u yoki bu aspektini tashkil etsa, ikkinchi tomondan sotsiallikning soha sifatida vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatning boshqa sohalari, ya'ni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalari bilan o'zaro aloqadorligini tashkil etadi [1; 117-121].

Hozirgi davr ijtimoiy soha muammolarini o'rganishdagi asosiy zaif tomon shundaki, asosiy tushunchalar, ya'ni "ijtimoiy soha", "ijtimoiy infrastruktura", "sotsiomadaniy soha" atamalarini aniqlashda va qo'llashda chalkashliklar mavjud. Aslida "ijtimoiy soha" deganda insonni yaxlit ishlab chiqarish sohasi tushuniladi. Uning asosiy elementlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ijtimoiy-mehnat sohasi, aholining bandligini ta'minlash sohasi, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash sohasi, ijtimoiy-maishiy soha, ijtimoiy va pensiya sug'urtasi (ta'minoti) sohasi, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasi, ijtimoiy-madaniy soha, yoshlar bilan ishlash sohasi, aholi migratsiyasi sohasi va boshqalar shular jumlasidandir. Ijtimoiy sohaning asosiy funksiyasi shu ma'noda insonni ishlab chiqarish funksiyasi hisoblanadi.

Ijtimoiy soha uchun muayyan funktsional yo'nalganlik xos bo'lishini ham ta'kidlash o'rinlidir. Bu quyi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish yuqori darajadagi ehtiyojlarni qondirish tomon yo'nalganlikda namoyon bo'ladi. Bunday yo'nalganlik muayyan jamiyatda ustuvorlik qiluvchi, ya'ni dominant funktsiya bo'yicha uning xarakterini baholash mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oddiy ishlab chiqarish funksiyasi ustunlik qiladi, ijtimoiy o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda – adaptatsion, rivojlangan mamlakatlarda esa rivojlantiruvchi funktsiya ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Албегова И.Ф., Албегов Ф.Г. Социология социальной сферы как инновационное направление современного социологического знания: состояние и проблемы развития // Социальные и гуманитарные знания. – 2016. – Том 2. – № 2. – С. 117-121.
2. Zaitov E. K., Teshayev D. M. Family Conflict and Divorce as A Social Problem // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 5. – С. 1-5.



3. Кравченко С.А. Развитие социологической теории в начале третьего тысячелетия: по материалам международных конгрессов и конференций / С.А. Кравченко // Гуманитарный ежегодник. №7 / Отв. ред. Ю.Г. Волков. – Ростов н/Д.: Социально-гуманитарные знания, 2008. – С. 110-128.
4. Ritzer G. Postmodern Social Theory. – McGraw-Hill Companies, 1997.
5. Therborn G. At the birth of second century sociology: times of reflexivity, spaces of identity, and nodes of knowledge // Brit. J. of Sociology. 2000. Vol. 51. N 3. P. 50.
6. Хусанова Х.Т. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда хорижий тажриба: илғор моделлар ва амалиёт // Журнал социальных исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
7. Акрамов Х. Ф. Конвертация социального капитала и его влияние на систему социальной защиты // Социология и право. – 2020. – №. 2. – С. 38-50.
8. Аббор Х. Х. Глобаллашув ва янги мустақил давлатларнинг барқарор ривожланиши: назарий социологик таҳлил // Журнал социальных исследований. – 2022. – №. SI-1.
9. Нематова Д. Т. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш жараёнларининг социологик таҳлили // E Conference Zone. – 2022. – С. 83-86.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975614>

ИРРАЦИОНАЛЬНОСТЬ ПРИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДАННЫХ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Сеитов А.П.

доктор социологических наук, доцент

Университет мировой экономики и дипломатии, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: Тезисы посвящены интерпретации эмпирических данных при проведении социологических исследований, формулируются методологическая разница интерпретации первичных и вторичных данных, а также обосновывается важность использования интуиции как иррациональности в условиях современного информационного общества.

Ключевые слова: социология, эмпирика, данные, методология, анализ, интерпретация, иррациональность.

IRRATIONAL INTERPRETATION OF SOCIOLOGICAL RESEARCH DATA

Seitov A.P.

doctor of Sociological Sciences, Associate Professor

University of World Economy and Diplomacy, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The theses are devoted to the interpretation of empirical data in sociological research. They formulate the methodological difference between interpreting primary and secondary data, and also justify the importance of using intuition as irrationality in the conditions of modern information society.

Keywords: sociology, empiricism, data, methodology, analysis, interpretation, irrationality.

Социологическое исследование является основным способом получения достоверных и обоснованных знаний об обществе как одного из элементов научного прогресса в целом. Показательно, что все больше диссертаций в сфере гуманитарных наук, монографии и статьи опираются при анализе на данные различных социологических исследований. Одно из определений социологическому исследованию дано в следующей формулировке – логически последовательные методологические, методические и организационно-технические процедуры, связанные между собой единой целью: получить достоверные данные об

I-SHO'BA. ZAMONAVIY IJTIMOY VOQELIKNING O'ZIGA XOSLIGI
VA ZAMONAVIY JAMIYAT DINAMIKASINI ANIQLASH

OLIY O'QUV YURTLARIDA O'QUV-USLUBIY ISHLARNI TASHKIL QILISHDA INNOVATSION BOSHQARUV	5
Inaqov Qudratjon Qadirjanovich	
YOSHLAR TARBIYASI – III RENESSANSNING MA'NAVIY ASOSI	7
Mansur Bekmurodov	
ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНСКОГО ОБЩЕСТВА	11
Рахимова Н.Х.	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA TAHIDDLAR VA ULARGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI	15
Matibayev Tashpo'lat	
СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	21
Убайдуллаева Раиса Турсуновна	
KEKSALIK DAVRINING ILMIY TAVSIFLANISHIDA ETNOMETODOLOGIK YONDASHUV	24
Shohida Sodikova	
ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ И ПСИХОСОЦИАЛЬНОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ПОДРОСТКОВ В ШКОЛЕ	26
Ташмухамедова Дилорам Гафурджановна	
YETIMLIK ILM-FAN DUNYOSIDA VAHS-MUNOZARALARGA SABAB BO'LIB KELAYOTGAN MURAKKAB IJTIMOY HODISA	31
Zaitov Elyor	
СТРОИТЕЛЬСТВО НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ИТОГИ ПЕРВОГО ЭТАПА РЕФОРМ И ЗАДАЧИ ДАЛЬНЕЙШЕГО ПРОГРЕССА	34
Бекмуродов Бобур	
INTEGRITY AS AN ACTUAL DIRECTION IN THE SOCIOLOGY OF SPORT	40
Gonashvili A.S.	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ	44
Жолдошева А.Ш., Кошбакова Б.М.	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI VAHOLASH	48
Alikariyev Nuriddin Safarqoriyevich	
“JAMIYAT IJTIMOY SOHASI” TUSHUNCHASIGA DOIR	53
Kholbekov Abdug'ani, Nazarqosimov Sarvar	
ИРРАЦИОНАЛЬНОСТЬ ПРИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДАННЫХ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ	57
Сеитов А.П.	
MARKAZIY OSIYODAGI TABAQALANISHNING IJTIMOY XUSUSIYATLARI	59
Komil Kalonov	
ДЕМОНСТРАТИВНОЕ ПОТРЕБЛЕНИЕ МОЛОДЕЖИ СКВОЗЬ ПРИЗМУ ИНТЕРНЕТА И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ	61
Вяткина Ю.А., Бураканова Г.М., Ахмедова Ф.М.	
СОЦИАЛЬНЫЙ ЛАНДШАФТ СОВРЕМЕННОГО МИРА И СОЦИОЛОГИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ	68
Каххаров Абдулахат Ганниевич, Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич	

YOSHLAR IJTIMOIIY-INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	71
Sarvar Otamuratov	
УСИЛЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОТКРЫТОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ И УПРАВЛЕНИЯ В ОБНОВЛЯЕМОЙ КОНСТИТУЦИИ.....	74
Алексеева В.С.	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	78
Sabirova Umida	
“TURMUSH SIFATI” TUSHUNCHASI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING KONTSEPTUAL TAHLILI.....	81
Abduxalilov Abdulla	
YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI.....	84
Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna, Yo'ldoshev Shohrux Ilhomjon o'g'li	
O'ZGARIB BORAYOTGAN DUNYO SHAROITIDA AVLODLARNING DIFFERENTSIATSIYASI VA JIPSLASHUVI.....	87
Kalanova Sabohat Muradovna	
НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ ГОРОДСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ (к вопросу становления и развития социологии города).....	91
Шокиров Хотан Анварович	
LOW-SKILLED LABOR MIGRATION FROM KAZAKHSTAN AND UZBEKISTAN TO SOUTH KOREA.....	94
Toktarova Nazym	
ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРЕИМУЩЕСТВА, НЕДОСТАТКИ, ПЕРСПЕКТИВЫ.....	98
Мискинов Махдий Бозорбой ўғли, Решетников Иван Валерьевич	

II-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

О НЕКОТОРЫХ ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЯХ КЫРГЫЗОВ УЗБЕКИСТАНА..	103
Жусубалиев А.Р., Халматов К.А.	
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ «ПРАЗДНИКА НАУРЫЗ» (НА ОСНОВЕ ТРУДОВ УЧЕНОГО-ФАРАБИЕВЕДА АКЖАНА АЛЬ-МАШАНИ).....	107
Имангалиев А.Т., Дукенбаева З.О.	
OLDER PEOPLE ARE AN ESSENTIAL COMPONENT OF NATIONAL HUMAN CAPITAL.....	111
Kamalova Khatira	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA IJTIMOIIY STEREOTIPLAR.....	114
Xaydarov Abror	
YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI SIFATIDA.....	117
Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHDA O'ZARO KO'MAK OMILINING TARIXIY AHAMIYATI.....	121
Xusanova Xayriniso Tayirovna	
НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА МОРАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ.....	123
Маймакова А.А., Бураканова Г.М.	
INSON RESURLARINI BOSHQARISH STRATEGIYASI QO'LLANISHINING BAHOLASH MEZONLARI.....	127
Olimov Furqat Hoshimovich	

AJDODLAR ILMIY MEROSI MILLIY QADRIYATIMIZ POYDEVORIDIR.....	129
Xolmirzayev X.D., Xalimmetova R.D.	
MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI.....	133
Xolmirzayev X.D. Sotvoldiyeva M.	
ВОПРОСЫ НАЦИОНАЛЬНО-ЭТНИЧЕСКОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ МОЛОДЕЖИ.....	136
Ахмедова Феруза, Назарова Раъно	
MA'NAVIY QADIRIYATLARNING MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDAGI AHAMIYATI.....	140
Kadirova X.B.	
DEMOKRATIK JAMIYAT TRANSFORMATSİYALASHUVIDA QADRIYATLARNING IJTIMOİY AHAMIYATI.....	144
Navruzov Oybek Egamqulovich, Dusmuradova Umida Ibragimovna	
DAVRLAR ALMASHINUVIDA AXBOROTLARNING INSONLAR TAFAKKURIGA TA'SIRI.....	148
Ernazarov Behzod	
DAVLAT BOSHQARUVIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOİY MEKANIZMLARI.....	150
A'zamova Kumush	
MADANIYAT – MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING SHAKLLANTIRUVCHI OMILI SIFATIDA.....	153
Akramov X. F., Qo'qonboyeva G.S., Qo'chqorova K.X., Nuxriddinova D.X.	

III-SHO'BA. MINTAQANING IJTIMOİY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН ЧЕРЕЗ КОНЦЕПЦИЮ «СЛЫШАЩЕГО ГОСУДАРСТВА».....	156
Рысбаева С.Ж.	
“MADANIY KOD” TUSHUNCHASI, UNING MARKETING VA MENEJMENT SOHASIDA TUTGAN O'RNI.....	160
Abdusalom Umarov	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА КАЗАХСТАНА В ОБЛАСТИ СОДЕЙСТВИЯ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ КАТЕГОРИИ NEET.....	163
Нұртазина Роза, Найла Мұхтарова, Арайлым Джунусова	
QASHSHOQLIKNI KAMAUTIRISH O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SIYOSATINING USTOVOR YO'NALISHI.....	168
Saparbaev Rustam Tursinbaevich	
ОБРАЗ РОДИНЫ ГЛАЗАМИ ТАМБОВСКИХ СТУДЕНТОВ.....	170
Гузенина С.В.	
RESEARCH IN SOCIOLOGY OF SPORTS IN INDIA AND POSSIBILITIES FOR THE WORLD.....	174
Dr. Sanjay Tewari	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА СТРАН-ЧЛЕНОВ ШОС В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СФЕРЕ.....	182
Корганова С.С., Кадеева А.М., Райхан Б.А.	
MENTAL HEALTH OF SOCIETY: "BY LAW OR BY CONSCIENCE?".....	188
Kamchybek uulu M., Usupova C.S.	
TA'LIM SIFATI MENEJMENTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MODELLAR.....	192
Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna	

РЕПАТРИАНТЫ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ГЕНЕЗИС ПРОБЛЕМЫ.....	196
Жусубалиев А.Р., Токоева Н.Б.	
ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ИНКЛЮЗИИ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	201
Латипова Нодира, Ниёзов Султонмурод	
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI USTUVOR VAZIFALAR.....	205
Axmedova F.M.	
SOCIAL CAPITAL AS A FACTOR OF IMPROVING THE QUALITY OF LIFE.....	208
Khusan Akramov	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING «UMPR» MODELI.....	212
Dilfuza Nematova	
IJTIMOY-IQTISODIY VA DEMOGRAFIK XOLATINI INSON KAPITALI SHAKILLANISHIDAGI O'RNI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA).....	214
Sodirjonov Muxriddin	
OILADAGI ZO'RAVONLIK ZAMONAVIY OILALARNING ENG DOLZARB MUAMMOLARIDAN BIRI SIFATIDA.....	219
Ziyayeva Xolida, Mingbayeva Bashorat	
ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННОЙ ЦИФРОВОЙ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ И ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	222
Юсупов Рахимжон	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЦЕНТРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОНЦЕПЦИЯ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РОЛЬ КОНЦЕПЦИИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧЕБНЫХ ЦЕНТРОВ.....	225
Асамова Умида	
TURKIYA TA'LIM TIZIMIDA MOBIL VA MASOFAVIY TA'LIM.....	228
Engin Evni	
СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАРКОЗАВИСИМЫХ: КАЗАХСТАНСКИЙ ОПЫТ.....	230
Санатқанұлы М., Байгабылов Н.	
YOSHLAR MA'NAVIYATNI YUKSALTIRISHDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARI TRANSFORMATSIYALANISHUVINING EVOLYUTSION ASOSLARI.....	235
Tashmetov Tuxtasin	

IV-SHO'BA. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOYIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

GLOBALASHUV – DUNYO IJTIMOYIY-SIYOSIY VA MADANIY MANZARASINI O'ZGARTIRISH JARAYONI.....	239
Farfiyev B.A.	
ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДЕЛИНКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	242
Латипова Нодира, Талипов Сухроб	
ELECTORAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN AND ELECTION CAMPAIGNING.....	245
Vyulegenova B.B., Bolysbek M.A.	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЁЖИ В МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА.....	252
Сабирова Умида Фархадовна, Абдусаломов Абдурашид Дилшод ўғли	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАНИЯ ЖЕНЩИН ПОЛЬШИ И КЫРГЫЗСТАНА.....	255
Шайылдаева Асель Кокоевна, Ига Стшалка, Агнешка Ермолович	
O'ZBEKISTONNING NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAHSLARGA NISBATAN IJTIMOYIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI.....	261
Abduvalieva Mumtozxon	

ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ САМОПОНИМАНИЯ В ФИЛОСОФИИ.....	264
Камчыбек уулу М., Качкынова А.Т.	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КАРТИНЫ МИРА В НОВЫХ РЕАЛИЯХ.....	267
Бюлегенова Бибигуль Бисенбаевна, Матайбаева Айжан	
YOSHLAR SOTSIOLOGIYASI: AHLOQ TRANSFORMATSIYASI.....	271
Xurshid Abdirashidovich Mirzaxmedov	
О‘ЗБЕКISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH МЕХАНИЗМЛАРИ.....	276
Isropilov Murodjon Bahodir o'g'li	
COMPLEX "ETERNAL CITY" AS A SOCIAL REALITY IN THE ECOSYSTEM OF THE CITY OF SAMARKAND.....	279
Khaydarova Khilola Khislatovna	
ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК КАК ПОЗИТИВНЫЙ ФАКТОР СОЦИАЛЬНЫХ КОММУНИКАЦИЙ.....	281
Решетников Иван, Ганиева Мухлиса	
ФЕНОМЕН ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДОВЕРИЯ В ПРАКТИКЕ СТАНОВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА.....	286
Хайрутдинов Жалолиддин	
ВОЗВРАЩЕНИЕ Г. ЛЕБОНА: РИСКИ ДЛЯ СОЦИАЛЬНОЙ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ.....	291
Нешитов П.Ю.	
О‘ЗБЕКISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA DIALOGNING ANAMIYATI.....	294
Maxkamov Ulug‘bek Abdugapporovich	
YOSHLAR - INNOVATSION TARBIYA OBYEKTI SIFATIDA.....	298
Xurshid Abdirashidovich Mirzaxmedov	

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 310 b.

KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

Mas'ul muharrir:
Kholbekov Abdugani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

Konferentsiya koordinatori:
Sabirova Umida Farxadovna
sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAXRIRIY KENGASHI

Xaydarov Abror Xaydarovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutaevna
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Xusanova Xayriniso Tayirovna
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Axmedova Feruza Medetovna
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Kalanova Sabohat Muradovna
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

Xaydarova Xilola Xislatnovna
O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Ahmedova Mohinur Nu'monovna
O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Muzaffarov Sanatbek Ikromjon ugli
O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Abdusalomov Abdurashid Dilshod o'g'li
O'zMU talabasi (Toshkent, O'zbekiston)

DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)